



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA EKOLOGIK TA'LIM VA
TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI**

G'ulomova Dilgira Dilmurod qizi

*Qo'qon davlat universiteti Ta'lim va tarbiya
nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim)
yo'nalishi I-bosqich magistranti*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov dasturi natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida innovatsion metodlar va interaktiv o'yinlarning bolalar nutqi hamda tabiatga bo'lgan munosabatiga ta'siri o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologik tarbiya, maktabgacha ta'lim, tajriba-sinov, ekologik madaniyat, interaktiv metodlar.*

Annotation. *This article analyzes the results of a ten-day experimental testing program conducted to develop ecological culture in preschool children. During the research, the influence of innovative methods and interactive games on children's speech and their attitude towards nature was studied.*

Keywords: *ecological education, preschool education, experimental testing, ecological culture, interactive methods..*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida insoniyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatning buzilishi global ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni hal etishning eng samarali yo'li — yosh avlodda bolalikdanoq ekologik madaniyat va mas'uliyatni shakllantirishdir. Maktabgacha ta'lim yoshi inson shaxsiyatining poydevori qo'yiladigan davr hisoblanadi. aynan shu davrda bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari shakllanadi va ularning nutqiy muloqot qobiliyati jadal rivojlanadi. Bugungi kunda global ekologik muammolar sharoitida yosh avlodga tabiatni asrash tuyg'usini bolalikdan singdirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek:

"Biz ekologik madaniyatni yoshligidan, oilada va maktabgacha ta'lim muassasasida shakllantirishimiz zarur. Ona tabiatga bo'lgan hurmat va ehtirom farzandlarimiz uchun hayotiy ehtiyojga aylanishi lozim."

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida hamda "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"da bolalarda tabiatga nisbatan g'amxo'rlik va ekologik ongni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Biroq, amaliyotda maktabgacha ta'limda ekologik tarbiyaning yetishmasligi



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



kuzatilmogda. Bu esa nafaqat tabiat haqidagi bilimlarning yuzaki bo'lishiga, balki bolalarning ilmiy-mantiqiy nutq boyligining ham cheklanishiga olib kelmoqda.

Mazkur maqola maktabgacha ta'limda ekologik tarbiyaning metodik asoslarini takomillashtirish va tajriba-sinov dasturi orqali uning amaliy natijalarini baholashga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot 2026-yilning aprel oyida Namangan viloyati Pop tumani 45-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti (DMTT)da o'tkazildi.

Dastur doirasida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Diagnostik metodlar: Suhbat, diagnostik testlar, rasmi kartochkalar.

Interaktiv metodlar: "Zanjir" o'yini, "aqliy hujum", muammoli vaziyatlarni tahlil qilish.

Amaliy va ijodiy yondashuv: "Tajriba va kuzatuv", drammatizatsiya (sahnalashtirilgan o'yinlar), musobaqa-viktorinalar.

NATIJALAR

O'tkazilgan tajriba-sinov dasturi yakunida bolalarning ekologik tushunchalari, amaliy ko'nikmalari va tabiatga bo'lgan munosabati sezilarli darajada o'zgarganligi kuzatildi. Natijalarni aniqlashda dastlabki va yakuniy monitoring ko'rsatkichlari qiyoslandi.

Dasturning "Ekologik terminlar" va "Tabiat sirlari" bloklari yakunida bolalarning lug'at boyligi o'rtacha 35-40% ga oshdi.

Tajriba boshida bolalarning atigi 20% qismi "ekologiya" va "atrof-muhit" tushunchalarini izohlay olgan bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 85% ni tashkil etdi.

"Suv – hayot manbai" mavzusidan so'ng bolalar suvning tabiatdagi aylanish jarayonini sodda mantiqiy zanjir ko'rinishida so'zlab berish ko'nikmasiga ega bo'ldilar.

"Chiqindilarni saralaymiz" va "O'simliklar – zamin o'pkasi" mavzularidagi amaliy mashg'ulotlar natijasida quyidagi ko'rsatkichlar qayd etildi:

Chiqindilarni saralash: Bolalarning 90% dan ortig'i chiqindilarni har yerga sochmasdan mahsus idishlarga solishni o'rganishdi.

Ekologik g'amxo'rlik: Tajriba-sinov guruhidagi bolalarda o'simliklarni parvarish qilish (suv quyish, barglarini artish) va ularga "tirik mavjudot" sifatida qarash hissi 2 barobarga ortdi.

Motivatsion ko'rsatkichlar. "Yosh ekolog" viktorinasi va "Muammoli vaziyat" tahlillari shuni ko'rsatdiki, bolalarda tabiatni muhofaza qilishga bo'lgan qiziqish faqatgina mashg'ulot paytida emas, balki bo'sh vaqtlarda ham namoyon bo'la boshladi. Bolalarning 75% qismi o'z tengdoshlarini va hatto kattalarni ham tabiatni asrashga (suvni isrof qilmaslik, daraxt shoxini sindirmaslik) chaqirish holatlari kuzatildi.

Bu natijalar shuni tasdiqlaydiki, maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya yetishmasligini bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan mazkur dastur kutilgan samarani berdi va bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

MUHOKAMA



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tasavvurlar faqatgina nazariy bilim berish orqali emas, balki hissiy-amaliy faoliyat orqali samaraliroq shakllanadi.

Ekologik terminologiya va nutq integratsiyasi: Dasturning dastlabki kunlarida bolalarda "ekologiya" tushunchasi mavhum bo'lgan bo'lsa, "Tabiat – bizning uyimiz" mavzusidan so'ng, ularning nutqida terminologik boyish kuzatildi. "Zanjir" o'yini orqali bolalar tabiatdagi o'zaro bog'liqlikni (masalan: quyosh, o'simlik, hayvon) mantiqiy ketma-ketlikda tushuntirib bera oldilar.

Muammoli yondashuvning ahamiyati: "agar daraxtlar kesilsa..." mavzusidagi muammoli vaziyat bolalarda tanqidiy fikrlashni uyg'otdi. Bu bosqichda bolalar nafaqat savolga javob berishdi, balki tabiatni himoya qilish bo'yicha o'zlarining kichik "loyihalari"ni (masalan, daraxt ekish, suvni tejash) taklif qilishdi. Bu esa ta'limda interaktivlikning yuqori samarasidir.

Chiqindilarni saralash va amaliy ko'nikma: "Qaysi qutiga?" didaktik o'yini natijasida bolalarda ekologik madaniyatning amaliy ko'rinishi shakllandi. Monitoring natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalar kundalik hayotda ham qog'oz va plastik chiqindilarni ajratishga harakat qila boshlaganlar. Bu ko'rsatkich tajriba boshidagiga nisbatan yuqori natijani tashkil etdi.

Psixologik va estetik ta'sir: Sahnalashtirilgan o'yinlar va "Tajriba va kuzatuv" metodlari bolalarning tabiatga nisbatan empatiya (rahmdillik, g'amxo'rlik) hissini kuchaytirdi. O'simliklarni "zamin o'pkasi" deb atalishi ularga tirik tabiatning qadrini tushunishga yordam berdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Ekologik xavfsizlik — bu nafaqat tabiatni asrash, balki insoniyatning kelajagini asrashdir". Bizning tadqiqotimiz aynan shu kelajakning poydevori bo'lgan bolalarda ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tajriba-sinov dasturi asosida o'tkazilgan tadqiqotlar quyidagi yakuniy xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Metodik yangilanish zaruriyati: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik tarbiya faqatgina "Tabiat bilan tanishtirish" mashg'ulotlari bilan cheklanib qolmasdan, barcha faoliyat turlariga (o'yin, mehnat, san'at, nutq) integratsiya qilinishi lozim.

2. Tizimlilik tamoyili: Ushbu ketma-ketlikdagi mashg'ulotlar tizimi bolalarda parchalanmagan, balki butun va yaxlit ekologik dunyoqarashni shakllantirdi. Yakuniy monitoring bolalarning bilim darajasi barqaror ekanligini tasdiqladi.

3. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi: Mashg'ulotlar davomida "tejamkorlik", "uvol qilmaslik" kabi milliy qadriyatlarimiz zamonaviy ekologik terminlar bilan bog'lab berilishi bolalarning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

4. Ota-onalar bilan hamkorlik: Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, MTTda olingan ekologik bilimlar oilaviy muhitda mustahkamlangandagina yuqori natija beradi.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan tajriba-sinov dasturi maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirishda samarali mexanizm bo'lib xizmat qiladi va uni keng ko'lamda o'quv jarayoniga tatbiq etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019 yildagi Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonuni O'RQ-595-son
2. F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, N. Kayumova, M. a'zamova. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur" nashriyoti. Toshkent-2019
3. Malohatxon Esonova. "Maktabgacha pedagogika". Darslik. Toshkent-2022.